


МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

НАУЧНЫЙ ФОКУС



Последние
изменения

Последние
информация

Последние
шаги

И НОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ



Международный современный научно-практический журнал

Научный Фокус

№ 14 (100)
Июня 2024 г.

Часть 1

Издаётся с май 2023 года

Москва 2024

ЛЕКСИК БИРЛИКЛАРНИНГ КОНЦЕПТЛАРГА АЙЛАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ. Д.Б. Тургунов	
YUMSHOQ TO'QIMALARDA PLASTIK OPERATSIYA O'TKAZISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI Lutfullayev Doston Rustam o'g'li Bobomurodova Dilbar Bobomurod qizi	130
ПРЕПОДАВАНИЕ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ Аллаярова Умида Хаджибай кизи	133
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ Аллаярова Умида Хаджибай кизи	138
O'QUVCHILARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI Tleumuratova Nurjamal Maxsetovna	143
ЎҚУВЧИЛАРДА ТАРИХИЙ БИЛИМЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА УЛАРНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ Ганиев Темирбай Султанбаевич	146
"TUYA" ZOONIMING ASSOTSIATIV MAYDONI Jumayeva Marjona Erkinovna	150
"EXPLORING THE FLAVORFUL WORLD OF LANGUAGE: A STUDY OF PHRASEOLOGISMS WITH GASTRONOMIC COMPONENTS" Ulug'bek Malikov	154
LOYIHA MUVOFFAQIYATI VA INVESTITSIYA MUHITI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK Muminova E'zoza Ismadiyarovna Xomidjonov Diyorbek Nomonjon o'gli	158
O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI Zayniddinova Xurshida Dilmurod qizi	165
KANSEROGEN MODDALAR VA ULARNING SARATON RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI. Mirzakarimova Sarvinoz Sobirjon qizi	167
VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQLARINI HIMoya QILISH Sayitxonova Barchinoy Axatovna Muhammadaliyeva Irodaxon G'ayratjonovna Axmatqulova Barnoxon O'ktamjonovna	170
TURIZM KORXONALARIDA INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISH TOGRISIDA	174

ЛЕКСИК БИРЛИКЛАРНИНГ КОНЦЕПТЛАРГА АЙЛАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ. Д.Б. Тургунов	
YUMSHOQ TO'QIMALARDA PLASTIK OPERATSIYA О'TKAZISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI Lutfullayev Doston Rustam o'g'li Bobomurodova Dilbar Bobomurod qizi	130
ПРЕПОДАВАНИЕ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ Аллаярова Умида Хаджибай кизи	133
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ Аллаярова Умида Хаджибай кизи	138
O'QUVCHILARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI Tleumuratova Nurjamal Maxsetovna	143
ЎҚУВЧИЛАРДА ТАРИХИЙ БИЛИМЛАРНИ ШАКЛАНТИРИШДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА УЛАРНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ Ганиев Темирбай Султанбаевич	146
"TUYA" ZOONIMING ASSOTSIATIV MAYDONI Jumayeva Marjona Erkinovna	150
"EXPLORING THE FLAVORFUL WORLD OF LANGUAGE: A STUDY OF PHRASEOLOGISMS WITH GASTRONOMIC COMPONENTS" Ulug'bek Malikov	154
LOYIHA MUVOFFAQIYATI VA INVESTITSIYA MUHITI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK Muminova E'zoza Ismadiyarovna Xomidjonov Diyorbek Nomonjon o'gli	158
O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI Zayniddinova Xurshida Dilmurod qizi	165
KANSEROGEN MODDALAR VA ULARNING SARATON RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI. Mirzakarimova Sarvinoz Sobirjon qizi	167
VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQLARINI HIMoya QILISH Sayitxonova Barchinoy Axatovna Muhammadaliyeva Irodaxon G'ayratjonovna Axmatqulova Barnoxon O'ktamjonovna	170
TURIZM KORXONALARIDA INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISH TOGRISIDA	174

“TUYA” ZOONIMING ASSOTSIATIV MAYDONI

Jumayeva Marjona Erkinovna
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada “tuya” zoonimi va unga tegishli bo'lgan tushunchalar assotsiatsiyasi tuzilgan hamda kognitiv nuqtayi nazardan tahlilga tortilgan. Maqollar tarkibida “tuya” leksemasi bilan parallel qo'llangan zoonimlar va ularga yuklatilgan uslubiy jihatlariga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: zoonim, parallel, kognitiv tilshunoslik, assotsiativ maydon, leksema, hosila.

Abstract: In this article, the zoonym "camel" and the association of related concepts are compiled and analyzed from a cognitive point of view. Zoonyms used in parallel with the lexeme "camel" in the composition of proverbs and their stylistic aspects are also paid attention to.

Key words: zoonym, parallel, cognitive linguistics, associative field, lexeme, derivation.

Аннотация: В данной статье зооним «верблюд» и ассоциации родственных ему понятий обобщены и проанализированы с когнитивной точки зрения. Также уделяется внимание зоонимам, используемым параллельно с лексемой «верблюд» в составе пословиц, и их стилистическим аспектам.


Ключевые слова: зооним, параллель, когнитивная лингвистика, ассоциативное поле, лексема, деривация.

ASSOTSIATSIYA (psixologiyada) – muayyan sharoitda psixologik hosilalar orasida paydo bo'ladigan aloqa. U inson ongidagi avvalgi turmush tajribalari bilan belgilanadigan tasavvurlar bog'lanishi, shu bog'lanishlar tufayli ongda paydo bo'lgan muayyan tasavvurlar o'xshashlik, yondoshlik va qaramaqarshilik belgilariga ko'ra, shunga bog'liq bo'lgan boshqa tasavvurlarni hosil qiladi. Assotsiatsiya o'tmish tajribasi asosida paydo bo'lib, narsa va voqealarning obyektiv aloqalarini aks ettiradi. Bir ruhiy jarayonning namoyon bo'lishi Assotsiatsiya tufayli ikkinchi (avvalgisi bilan bog'liq bo'lgan) ruhiy jarayonni vujudga keltiradi. Asosan uch xil Assotsiatsiya mavjud: qaramaqarshilik Assotsiatsiyasi — avval idrok qilingan qarama-qarshi sifatlarga ega bo'lgan narsa va hodisalarning birortasini takror idrok qilish yoki tasavvur qilish munosabati bilan boshqalari obrazlarining ixtiyorsiz ravishda ongda gavdalanishidan iborat qonuniyat. Masalan, «urush» so'zi idrok qilinsa, beixtiyor «tinchlik» eslanadi. Yondoshlik assotsiatsiyasi – avval bir vaqtda yoki ketma-ket idrok qilingan narsa va hodisalarning birontasini qayta idrok qilish yoki tasavvur munosabati bilan ixtiyorsiz ravishda ongda boshqalarining ham obrazlari gavdalanishidan iborat qonuniyat. Masalan, «vokzal» so'zi idrok yoki tasavvur qilinsa, t. y., wagon, yo'lovchilar ham esga tushadi. O'xshashlik assotsiatsiyasi –bir-biriga o'xshash belgilarga ega bo'lgan narsa va

hodisalarning birortasini idrok yoki tasavvur qilish munosabati bilan ongda boshqalarining ham obrazlari ixtiyorsiz ravishda tiklanishidan iborat qonuniyat. Masalan, Hasan va Husanning biri idrok qilinsa, ixtiyorsiz ravishda ikkinchisi eslanadi.

Inson psixik hayotida assotsiatsiyalarning ahamiyati katta: bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, xotirani rivojlantirish Assotsiatsiya larga asoslanadi. Assotsiatsiya larning fiziologik asoslari bosh miya yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan muvaqqat nerv bog'lanishlaridir¹⁹.

Quyidagi sxemada xalq maqollarida "tuya" zoonimi bilan assotsiatsiya hosil qiladigan birliliklar sanab o'tilgan.



"Tuya" leksemasi bilan doimiy ravishda "sahro", "yuk", "arbon", "sardoba" tushunchalari baravar qo'llaniladi. Shuning uchun ham o'zbek lingvomadaniyatida tuyaga nisbatan "Sahro kemasi" perefrazasi faol qo'llaniladi.

Tuya qochib yukdan qutulolmaydi;

Ayol makri qirq tuyaga yuk bo'lar;

Tuyaning yuki oziq-ovqat bo'lsa ham, och odamga oz ko'rindi;

Hamma yukni ko'targan tuya kapkirini ham ko'taradi... kabi maqollarda u yuk leksemasi bilan bir qurshovni taqazo qiladi.

Tuya tilini carbon bilar maqolida esa u carbon leksemasi bilan assotsatsiyani yuzaga keltiradi.

"Buyda", "xovut", "yag'ir" so'zлari ham bevosita tuyaga yaqin tushunchalardir.

Tuyaning buydasi o'z chuydasida.

Buyda – tuyaning chilviri, burundug'iga taqiladigan tizimcha arqon. Chuyda – tuyaning bo'yni va tizzasidagi o'siq yunglar. Uni qirqib, eshib, arqon qiladilar. Maqolning to'g'ri ma'nosi: "Tuyaning o'z chuydasini olib, uning bo'yniga taqib, sudrab yuradilar. Tuya o'z-o'zini sudrab yuradi". Majoziy ma'nosi: "Kishi o'ylab so'ylamasa, tilini tiyib yurmasa, o'z tili uni bog'lab beradi"²⁰.

Tuyaning buydasi – eshakning bo'ynida.

¹⁹ <https://qomus.info/oz/encyclopedia/a/assotsiatsiya-2/>

²⁰ Шомақсұдов III., Шорахмедов III. Маънолар маҳдии (ўзбек маколларининг изоҳли лутати). – Ташкент: Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси Давлат илмий навариёти, 2001. – Б. 334.

Buyda – tuyaning tumshug'idan boylab, eshakning bo'yniga solib qo'yiladigan arqon. Odatda tuya karvonini eshak boshlab boradi. O'tmishdagi buzuq,adolatsiz, tengsiz zamondan noligan xalq bu maqoli bilan majozan: "Ommaga ahmoqlar, befahm-befarosatlar yo'lboshchilik qilmoqda", demoqchi bo'lganlar²¹.

Shunda Nor tuya debdiki:

— Ey hojam, urib-so'kkaningiz, siltalaganlaringiz, hatto burnimni teshib, burunduq

o'tkazganingiz uchun xafa emasman. Bu sizning menin ustimdagi haqqingiz edi. Men nohaq harakatlaringizning barchasini unutaman, ammo bitta ishingizni sira kechira olmayman.

— Qaysi aybim ekan, ayt, — debdi qariya.

— Esingizdam, falon zamonda sahroda adashib qolgan edik. Men ne mashaqqatlar bilan sizni omonlikka olib chiqdim. Shaharga yaqinlashgan onimizda siz menin burundig'imga bog'langan arqonning bir uchini eshakning dumiga bog'lab qo'ydingiz. Men o'shanda eshakning dumi hukmiga bo'yсинib shaharga kirdim. Mana shu xo'rlikni kechira olmayman, hojam, — degan ekan Nor tuya.

Xongirey huzuridan chiqqan Asadbek o'zini o'sha Nor tuya holida ko'rdi. Xongirey uning

burnidan ip o'tqazib bir uchini Kesakpolvon qo'liga tutqazmoqchi edi. Asadbek taqdirning bu shum haziliga itoat etganday bo'ldiyu, o'zidan nafratlandi. Boshiga sho'r tushganidan beri u bu qadar xorlanmagan edi²².

Yomon tuya xovutin yer

Xovut – tuya egari²³.

"Qator" leksemasi ham xalq maqollarida "tuya" leksemasi bilan faol qo'llaniladi.

"Qatorda nori borning ori bor";

Qatorda noring bo'lsa, yuking yerda qolmaydi.

Ushbu maqolda nor ham farzand, ham do'st ma'nosida kelishi mumkin. Har qanday inson hayoti davomida murakkab vaziyatlarda kimgadir suyanadi, undan madad kutadi. Insonning yonida yaqin odami bor ekan uning yuki yerda qolmaydi, hayot sinovlarida yolg'izlanib qolmaydi.

Qatordan qolding, xatarda qolding

Tuya karvonini ham "qator" deydilar. Agar qatordan, ya'ni karvondan ajralsang, yakka o'zing cho'l-biyobonlarda katta xavf-xatarga duchor bo'lising – talonchiga yo'liqishing, yirtqichlarga yem bo'lising mumkin, shuning uchun ko'pchilikdan sira ajray ko'rma deyilmoqchi²⁴.

Kognitiv tilshunoslikda assotsiatsiya tushunchasi asosiy birliklardan biri sanaladi. Inson egallagan bilim hamda bu tafakkur tarzi uning lisonida bir assotsiatsiya doirasida joylashadi va bu yangi freym to'pini hosil qiladi.

²¹ Шомакудов Ш., Шорахмедов Ш. Манзулар маҳсими (ўзбек маколаларининг изоҳли лутати). – Тошкент: Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 123.

²² Tohir Malik. Shaytanat. 4-kitob.-B.110.

²³ ²⁴ Шомакудов Ш., Шорахмедов Ш. Манзулар маҳсими (ўзбек маколаларининг изоҳли лутати). – Тошкент: Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б.104.

Шомакудов Ш., Шорахмедов Ш. Манзулар маҳсими (ўзбек маколаларининг изоҳли лутати). – Тошкент: Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 12.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Мерос., 2017. -139 б.
2. Fridrix Nitsshe. "On the Geneology of Morals A Polemical tract".
3. Richer Resources Publications. Woodrow Street Arlington, Virginia. 1926. 14-19-р.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли.- Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000-2006.
6. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 12
7. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/a/assotsiatsiya-2/>